1. Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim bo'yicha qo'llanma. EuropeAid
2. "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari" Ilmiy-Amaliy Konferensiya materiallari, 2005-yil, 31-mart
3. Европейский союз и <<Группа восьми>> Совместная ответственность за глобальное общественное благо. Москва-2011
4. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/ozbekistonevropa-ittifoqi-2022>
5. <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/a8104>
6. <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-yevropa-ittifoqi-hamkorlikning-istiqboldagi-bosq-04-11-2016>
7. <https://telegra.ph/Ozbekistondan-Yevropa-Ittifoqi-bozoriga-eksport-qilish-muammolar-imkoniyatlar-va-istiqbollar-mavzusidagi-respublika-ilmiy-amaliy-11-06>
8. <https://daryo.uz/2022/11/02/ozbekistonning-yevropa-ittifoqi-davlatlari-bilan-savdo-aloqalari-qanday-kechmoqda>

O‘ZBEKISTON VA YEVROPA ITTIFOQI O‘RTASIDAGI SAVDO, TURIZM VA MADANIYAT ALOQALARINING ISTIQBOLLARI

Abdullayev Zafarbek Safibullayevich – Toshkent Moliya instituti tadqiqotchisi
Abdullabekova Noilaxon G‘ofurjon qizi – Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada O‘zbekiston va Yevropa ittifoqi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning imkoniyatlari, aloqalarning mustahkamlanishi natijasida yuzaga keladigan kelajakdagi istiqbollar haqida fikrlar berilgan. Shuningdek, shunday munosabatlarni yanada samarali olib borish va rivojlantirish bo‘yicha fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yevropa ittifoqi, savdo aloqalar, GSP+, turizm sohasidagi hamkorlik istiqbollari, tadbirkorlik faoliyati.

Аннотация. В данной статье представлены идеи о возможностях взаимоотношений Узбекистана и Европейского Союза, будущих перспективах, возникающих в результате укрепления отношений. Также даются мнения и комментарии по поводу более эффективного проведения и развития подобных мероприятий.

Ключевые слова: ЕС, торговые отношения, GSP+, перспективы сотрудничества, предпринимательская деятельность.

Annotation. This article presents ideas about the possibilities of mutual relations between Uzbekistan and the European Union, future prospects arising as a result of the strengthening of relations. Also, opinions and comments on the more effective conduct and development of such events are given.

Key words: European Union, trade relations, GSP+, prospects for cooperation, entrepreneurship.

Rivojlanib borayotgan zamonda barcha davlatlar o‘zaro aloqalar orqali yanada jiplashib borishiga ehtiyoj sezilmoqda. Shu borada O‘zbekiston ham jiplashuv, aloqalarni mustahkamlash maqsadida turli tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yayapti. Bunday aloqalar qo‘yilishi natijasida davlatlarda

o‘zaro tinchlik va hamjihatlik vujudga keladi. Globallashuv jarayonida davlatlar o‘rtasida mustahkam aloqalarning bo‘lishiga zarurat tug‘diryapti.

Jumladan, Yevropa ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasida ham savdo-iqtisodiy, turistik, madaniy, tinchlik va ijtimoiy himoya borasidagi aloqalarning o‘rnatilishiga zarurat uyg‘otdi. Buning natijasida Yevropa ittifoqi bilan hamkorlik yuzasida o‘zimizdagi yechilmayotgan muammolarga yechim, qo‘shimcha imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Yevropa ittifoqiga boshqa a‘zo bo‘lgan davlatlar o‘rtasida yaxshi aloqalarning ham vujudga keltirib berishi bizning mamlakatimizga istiqbolli aloqalarga imkoniyat va sharoit yaratib bera oldi. Yevropa ittifoqi bilan hamkorlik natijasida aholimizdagi tadbirkorlik faoliyatida ish olib borayotgan yurtdoshlarimiz uchun yana bir eksport yo‘laklari paydo bo‘ldi. O‘zaro hamkorlik aloqalarining yanada mustahkamlanishi natijasida bojxona borasida imtiyoz, eksport qilinuvchi tovarlarning salmog‘ining ko‘payganini ko‘rish mumkin.

O‘zaro hamkorlik yo‘lidagi izchil va amaliy muloqotlar samaralarini bermoqda. Aytaylik, Yevropa ittifoqi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun taqdim etayotgan qulaylik va yengilliklar nihoyatda muhimdir.

Birgina misol: O‘zbekistonning “GSP+” tizimida ishtirok etadigan benefitsiar-mamlakat maqomiga ega bo‘lishi eksport salohiyatimizni oshirishi bilan bir qatorda, boshqa ko‘plab ilg‘or sohalardagi natijalarimizni ham yaxshilashga xizmat qiladi. Bu o‘rinda, albatta, zamonaviy standart va texnologiyalarni tatbiq etish, zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, har bir sohada sifat ko‘rsatkichlarining zarur darajada bo‘lishiga erishish haqida so‘z bormoqda.³²

Aynan shunday bir imkoniyat yana boshqa imkoniyatlarni ochib berishga xizmat qilar ekan bizda ham o‘rganishimiz kerak bo‘lgan jihatlar mavjud ekanini ko‘rish mumkin. Zamonaviy bilimlarni qo‘llagan holda hamkorlik yo‘nalishlarini mustahkamlashda aholimiz orasida tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan shaxslarning bilimini oshirish bu borada maqsadli ishlarimiz bardavom bo‘lishini ta‘minlab beradi.

³² <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/a8104> Akmal Saidov ‘‘O‘zbekiston-Yevropa Ittifoqi’’ hamkorligi qo‘mitasining O‘zbekiston tomonidan hamraisi 14.07.2022

Davlat rahbari tomonidan qonuniy holda Yevropa ittifoqi bilan aloqalar bo'yicha maqsadli yo'nalish ishlab chiqilgan holda ishlar olib borilyapti:

- O'zbekiston Respublikasining Yevropa ittifoqi bilan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- milliy qonun hujjatlarini Yevropa ittifoqi qonun hujjatlariga moslashtirishga hamda Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Bitim bo'yicha O'zbekiston Respublikasining majburiyatlarini bajarishga yo'naltirilgan tavsiyalarni ishlab chiqish;³³

Ushbu qarordan ko'rinib turibdiki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik aloqalari har tomonlama yurtimizning rivojlanishi uchun yetarlicha yo'l ochib bera oladi. Savdo aloqalari orqali yurtimizga keladigan turli mahsulotlar bozorimizning to'yinmagan qismini to'yintirish uchun ham imkon berdi.

Yana bir muhim taklif – turizm bo'yicha “Evropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo” forumini joriy yilning ikkinchi yarmida Xiva shahrida o'tkazish bilan bog'liq. Bu anjuman bizga va mintaqamiz hamda Yevropadagi hamkorlarimizga pandemiyadan keyingi davrda sayyohlikni rivojlantirish bo'yicha muhim qo'shma chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun nihoyatda qo'l keladi.

O'zbekiston Yevropa ittifoqi bilan munosabatlarda inson huquqlari va qonun ustuvorligi sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Respublikamiz Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va aloqador masalalar bo'yicha O'zbekiston – Yevropa ittifoqi quyi qo'mitasi doirasida “Inson huquqlari bo'yicha muloqot”ni tashkil etdi. Bugungi kunga qadar tomonlar o'rtasida 12 raund muloqot bo'lib o'tdi. Harakatlar strategiyasi doirasida ko'p qirrali islohotlar boshlangan paytdan buyon yevropalik hamkorlarimiz jamiyati, so'z erkinligi va inson huquqlari sohasidagi chuqur o'zgarishlarni qo'llab-quvatlab kelmoqdalar.³⁴

³³ <https://lex.uz/uz/docs/-734688?ONDATE=22.03.2004#-734784>

³⁴ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonning-evropa-mamlakatlari-va-xalqaro-tashkilotlar-bilan-ozaro-manfaatli-hamkorligida-yangi-davr-boshlandi>

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki O‘zbekistonning faol olib borayotgan siyosiy ro‘li naqadar ahamiyatli ekanligini xalqaro hamkorlik tashkilotlari bilan olib borilgan aloqalar misolida ko‘rishimiz mumkin. Yevropa mamlakatlari bilan aloqalarning yanada mustahkamlanishi bundan keyingi yillarda savdo aloqalari, ijtimoiy muhitning yanada yaxshilanishiga va shu bilan birga barcha sohalar bo‘yicha yangi shartnomalar tuzilishiga olib keladi. Shuningdek, turizm sohasida ham transchegaraviy aloqalarda yengillik yaratilishi ham mumkin. Bizning yurtimizga tashrif buyuruvchi turistlarning ko‘pchilik qismi biznes bo‘yicha kelishini hisobga olib, aynan hamkorlik tufayli mana shunday tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan xorij fuqarolariga ham imkon beradi va turizmga ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/a8104> Akmal Saidov “O‘zbekiston-Yevropa ittifoqi” hamkorligi qo‘mitasining O‘zbekiston tomonidan hamraisi 14.07.2022
2. <https://lex.uz/uz/docs/-734688?ONDATE=22.03.2004#-734784>
3. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonning-evropa-mamlakatlari-va-xalqaro-tashkilotlar-bilan-ozaro-manfaatli-hamkorligida-yangi-davr-boshlandi>

MILLIY EKSPORTNI RIVOJLANISH TENDENSIYASI VA MUAMMOLARI

Sodikov Zokir Rustamovich – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Milliy iqtisodiyotda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar hisobiga eksport hajmi va diversifikatsiyalashuv jarayoni shiddat bilan avj olib bormoqda. Jumladan, jami eksport hajmi qariyb 17 mlrd. AQSh \$ga yaqinlashgan bo‘lsa, unda tovar va xizmatlar pozitsiyasi alohida natijalar namoyon qilib, o‘ziga borayotganligini kuzatish mumkin. Xususan, eksportda tayyor tovar sifatida kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar hajmi 1,5-2 baravar darajasida ortgan bo‘lsa, mashina va uskunalarning esa muntazam ravishda o‘zgarib turganligi ma’lum bolmoqda. Ayni paytda eksportda xomashyo sifatida paxta tolasining ulushi keskin kamaygan bo‘lsa, rangli metallar va oltinning ulushi sezilarli darajada ortganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, eksportda oziq-ovqat mahsulotlari ulushi sezilarli hajmda oshib, qolgan energetika va neft mahsulotlarining ulushi qisqarib bormoqda.

Shuningdek, mamlakatda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi ham ortib borayotgan bo‘lib, unda barra va qayta ishlangan sabzavotlarning ulushi ortgani sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. O‘z navbatida energiya tashuvchi va neft mahsulotlarining eksporti hajmi oshishi uning tarkibida eng yuqori ulushga ega tabiiy gaz va qayta ishlangan neft mahsulotlari hisobiga yuzaga chiqqan. Shuningdek, mashina, asbob-uskuna va ularning ehtiyot qismlari eksporti hajmi oshgan. Ba’zi kimyoviy mahsulotlar eksporti o‘z o‘rniga qaramasdan, ayrim plastmassa va undan yasalgan buyumlar eksporti qisqarishi bilan bir qatorda umumiy kimyo mahsulotlari eksporti hajmi ortib bormoqda. Bundan tashqari, eksportning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu xizmatlar eksporti bo‘lib, hozirda mamlakatimiz tomonidan qurilish, transport xizmatlari, sayohat va turizm, boshqa xizmatlar turlari tashqi bozorga taklif qilinmoqda va ularning hajmi muntazam ortib borayotganini ko‘rish mumkin.

Milliy tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlarni taqqoslaganda Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iziston, Afg'oniston, Tojikiston va boshqa shu kabi mamlakatlar katta salmoqqa ega bo'lmoqda va ularning jami eksportdagi ulushi 50 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar o'zni saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, ular ichida ayrimlarining o'zni almashib, o'z mavqeyini mustahkamlashi kuzatiladi. Ammo, shunga qaramasdan, tashqi savdo doirasida hamkor bo'lgan mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasida keskin chuqurlashuv tendensiyasi kuzatilmaydi.

Milliy tovarlar va xizmatlar eksportining tendensiyasi³⁵, mln. AQSh \$

Eksport tarkibi	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Tovar va xizmatlar	12094,6	12553,7	13990,7	17458,7	15102,3	16662,8
Tovar eksporti (FOB bahosida)	8974,0	10079,2	10 920,7	14 023,8	13 097,3	14081,1
Paxta	637,3	477,1	222,1	281,6	146,9	136,6
Kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar	841,1	883,7	905,3	878,1	873,2	1225,3
Qora metallar	155,3	152,8	320,3	302,7	317,5	184,6
Rangli metallar	553,3	761,9	851,5	951,3	924,4	1467,0
Energetika va neft mahsulotlari	1713,8	1 607,6	2 666,8	2 528,9	659,0	914,8

³⁵Stat.uz

Mashina va uskunalar	220,7	354,8	212,8	427,1	442,0	702,5
Oltin	2 807,6	3260,0	2909,5	4 918,3	5 804,4	4109,8
Oziq-ovqat maxsulotlari	694,5	875,9	1097,8	1 529,9	1 443,8	1 471,8
Xizmatlar eksporti	3120,6	2474,5	3070,0	3 434,8	2005,0	2581,7
Qurilish	63,8	37,1	36,7	41,9	42,3	14,6
Transport xizmatlari	1511,4	1600,7	1687,9	1765,7	1426,1	1744,1
Sayohat	1252,5	546,9	1041,1	1313,0	255,8	422,1
Boshqa xizmatlar	292,9	289,8	304,3	314,2	280,8	400,9
Boshqa	1350,4	1705,3	1734,5	2206,0	2486,1	3868,7

Hozirgi kunda tashqi savdo hajmi muntazam ravishda ortib borish tendensiyasiga ega bo‘lib, unda ustuvorlik import hajmida kuzatilmoqda. Xususan, tashqi savdo aylanmasi hajmi 2017-yilda 26,5 mlrd. AQSh \$ bo‘lib, unda eksport 12,5 mlrd. \$ni, import esa 14 mlrd. \$ni tashkil etib, savdo balansi saldosi 1,4 mlrd. \$ga teng bo‘lgan, bu ko‘rsatkich 2021-yilga kelib mos ravishda 42,1 mlrd. \$ni, 16,6 mlrd. \$ni, 25,5 mlrd. \$ni va 8,8 mlrd. \$ni tashkil etgan. Demak, keyingi besh yil mobaynida tashqi savdo aylanmasi 60%ga o‘sgan bo‘lsa, eksport 33%ga, import esa 82 %ga va savdo balansi saldosida manfiy vaziyat 6,3 martaga ortgan.

Mamlakatimizda hozirgi kunda MDH mamlakatlariga eksport hajmi muntazam ravishda ortib bormoqda va ularning jami eksportdagi ulushi 30 % dan ortiq bo‘lsa, uzoq xorijiy mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 65 %dan ortiqni tashkil etmoqda. Ushbu tendensiya borasida keltirilgan statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilish va xulosalar chiqarish mumkin. Umuman milliy tashqi savdoni tarkibiy jihatdan ham, geografik jihatdan ham chuqur diversifikatsiya qilish talab etiladi.

Tashqi savdo aylanmasining o‘shish tendensiyasi³⁶, mln. AQSH doll.

Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021
mln. AQSH doll.	24232,2	26566,1	33429,9	41751,0	36256,1	42170,5
eksport	12094,6	12553,7	13990,7	17458,7	15102,3	16662,8
import	12137,6	14012,4	19439,2	24292,3	21153,8	25507,7
<i>savdo balans saldosi</i>	-43,0	-1458,7	-5448,5	-6833,6	-6051,5	-8844,9
Shu jumladan:						
MDH mamlakatlari	8388,1	9084,6	12144,4	14461,8	11826,4	15920,4
eksport	4338,3	4080,1	5003,1	6234,0	4106,4	5433,8
import	4049,8	5004,5	7141,3	8227,8	7720,0	10486,6
<i>savdo balans saldosi</i>	288,5	-924,4	-2138,2	-1993,8	-3613,6	-5052,8
Uzoq xorijiy mamlakatlar	15844,1	17481,5	21285,5	27289,2	24429,6	26250,1
eksport	7756,3	8473,6	8987,6	11224,7	10995,8	11229,0
import	8087,8	9007,9	12297,9	16064,5	13433,8	15021,1
<i>savdo balans saldosi</i>	-331,5	-534,3	-3310,3	-4839,9	-2437,9	-3792,1

Jahon amaliyotida ko‘p kuzatiladigan holatlardan biri bu ayrim mamlakatlarni yoki juda sanoqli milliy xo‘jaliklarni muayyan davlatlar tashqi savdosida yetakchi salohiyatga ega bo‘lishi o‘ziga xos muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi tabiiy hisoblanadi. Xususan, milliy bozorimiz bugungi kunda 180 ga yaqin milliy iqtisodiyotlar bilan savdo aloqalarini o‘rnatgan bo‘lsa-da, ularda 7-8 tasi bilan shakllangan jarayon jami eksportning 50 %dan ortig‘ini tashkil etmoqda.

³⁶Stat.uz

Shuningdek, MDH bilan savdo aloqalari hajmining jami tashqi savdoning qariyb 1/3 qismidan ko'pligi ham geografik diversifikatsiyaning zaruriyatini tasdiqlamoqda.

Aynan mamlakatimiz tashqi savdosida yetakchi bo'lgan MDHning nisbiy ulushini kamaytirish uchun uzoq xorijiy mamlakatlar, ya'ni, jahonning boshqa milliy bozorlari va mintaqalari bilan savdo aloqalarini jadallashtirish va kengaytirish muhim hisoblanadi. Iqtisodiyotimizning eksport salohiyatidan samarali foydalanish va uni maksimum darajaga yuksaltirish uchun tarkibiy va geografik jihatdan diversifikatsiya qilish imkoniyatidan iste'foda qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, bu milliy bozorlar bilan aloqalarning rivojlanishi jahon bozorida yutuqlarni ko'paytirishga xizmat qilish bilan birga u cheklangan mamlakatlardagi inqirozlarning salbiy ta'sirlari ham iqtisodiyotimizda aks etishi mumkin.

Shu bois har bir mamlakatning ayrim milliy xo'jaliklarga keskin bog'lanib qolishiga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olish talab etiladi. Mazkur jihatlarni ko'zda tutib, tashqi savdo geografiyasini va tarkibini chuqurlashtirish, milliy eksportni jadal rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda asosiy hamkor davlatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan energiya tashuvchi va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari yetakchilik qilmoqda. Bu ham kutilmagan muammolarni kelib chiqishi va avj olishi uchun muhim manba hisoblanadi.

Demak, tashqi savdo va unda eksportning tarkibi yetarli darajada takomillashmagan va ayrim sohalar monopol salohiyatga ega bo'lgani uchun bu yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish zaruriyati mavjudligiga asos hisoblanadi. Chunki zamonaviy xizmatlarning eksportda ulushining cheklanganligi, sohaning rivojlanishi borasida muammolar mavjudligidan darak beradi. Bu esa milliy iqtisodiyotda zamonaviy taraqqiyotning o'zlashtirish oqsoqlanayotganligidan va yangiliklarni o'zlashtirish borasida tadbirlar belgilash zarurligiga dalolat qiladi. Shu bois milliy eksportni yanada kengaytirish va uning tarkibini xalqaro andozalarga muvofiq diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

GLOBALASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTON EKSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Usmonova Adiba Azim qizi – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida eksportning o‘rni, rivojlanishi va eksport raqobatbardoshligini oshirishda uchraydigan muammolar haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekistonda eksportning rivojlanishi, eksportda uchraydigan muammolar

Eksport marketingi bo‘yicha adabiyotlarni ko‘rib chiqishdan so‘ng va ushbu sohada kuzatilgan muhim kamchiliklarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston davlatida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport faoliyati bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishdir. Eksportni rivojlantirish nuqtai nazaridan ikki xil eksportchilar toifasi o‘rtasida eksport muammolarini idrok etishda potentsial sezilarli tafovutlar mavjudligini o‘rganiladi. Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu firmalar boshdan kechirgan eng muhim eksport muammolari eksport bozorlarida raqobatning intensivligi va samarali mahsulotlarning yo‘qligi bilan bog'liq edi. Milliy eksport siyosati tadqiqoti shuningdek, ikkita eksportchi sinf o‘rtasidagi idrok etilayotgan eksport muammolaridagi bir qancha muhim farqlarni ochib beradi. Kelgusi tadqiqot imkoniyatlari, tadqiqotning cheklovlari bilan bir qatorda muhokama qilinadi va topilmalarning boshqaruv va davlat siyosatiga ta'sir ko‘rsatadi.

So‘ngi yillarda tashqi savdo sohasi davlatimiz iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni takomillashtirish va barqaror o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha bir qancha ishlar qilindi. O‘zbekistonning tashqi savdo strategiyasi ichki iqtisodiyotni jahon iqtisodiy munosabatlarining sifat jihatidan o‘zgarib borayotgan tizimiga moslashtirishga hamda savdo kooperatsiyasidan sanoatlashtirish jarayonlarining katalizatori sifatida foydalanishga va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilmoqda. Iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, daromadi eng

yuqori bo'lgan mamlakatlar global raqobatbardoshlik indeksi yuqori bo'lgan iqtisodga ega bo'ladi. Ayni vaqtda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining aholi jon boshiga nisbatiga ko'ra "daromadli o'rtachadan past" bo'lgan mamlakatlar qatoriga kirib, iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha bazaviy drayverlarning o'tish davrida hisoblanadi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasiga asosan mamlakatimiz iqtisodiyoti 2030 yilga qadar xajmi 2 barobarga oshirilib, "daromadi o'rtachadan yuqori" (4000 AQSH dollar) mamlakatlar qatoriga kirib, samarador o'sish davriga kiradi. O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish omillaridan biri sifatida tashqi savdoning roli ortib bormoqda. Bu esa tashqi savdoning iqtisodiyotda sanoat salmog'ini oshirish, kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlari darajasini oshirishga xizmat qilishi bilan bog'liq.

Tashqi savdoning xalq xo'jaligidagi alohida o'rni shundaki, u xo'jalik faoliyatining deyarli barcha sohalariga integratsiyalashgan ichki iste'mol, investitsion, moliyaviy va texnologik resurslarning yetishmovchiligini to'ldirish funksiyalarini bajaradi hamda iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi turmush darajasini yaxshilash va insonlarga o'z hayotini nazorat qilish imkonini beradi.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan chora-tadbirlar tashqi savdoda eksport holatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi. Natijada 2017-2021-yillarda mamlakat eksporti har yili 15 foizga o'sdi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni rag'batlantirish, investitsiya loyihalarini va eksportyorlarni amaliy va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli mexanizmlar ishlab chiqilishi xorijiy mamlakatlar bilan savdo aloqalarini jadal rivojlanishiga yordam berdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, agar 2016-yilda tovar va xizmatlar eksporti yalpi ichki mahsulotning 15 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 31 foizga yetgan. 2017-2022-yillarda respublikaning jami eksporti 95 milliard dollardan ortiqni tashkil etdi, shundan 2022-yilda 19 milliard dollardan ortiq mahsulot eksport qilindi, bu 2016-yilga nisbatan 60 foizga ko'pdir. Bu jarayonda

davlatimiz rahbarining respublika tashqi savdosi sohasidagi ishlar holatiga alohida e'tibor qaratgani katta rol o'ynadi. Prezidentimiz doimiy ravishda barcha vazirlik va idoralar hamda viloyatlar rahbarlari ishtirokida eksport va sarmoyalarni jalb qilish masalalari bo'yicha muhokama yig'ilishlari o'tkazib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrda "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Eksportni qo'llab-quvvatlash milliy tizimi yaratildi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Eksportni rag'batlantirish agentligi tashkil etildi. Shuningdek, 205 nomdagi tovarlarni eksport qilishda transport xarajatlarining 50 foizini qoplab berish yo'lga qo'yildi. Bunday real, amaliy chora-tadbirlar albatta o'z natijasini bermoqda. Eksport bilan shug'ullanadigan sub'yektlar safiga 2 mingta yangi korxonalar qo'shildi, eksport geografiyasi 42 ta davlatga kengaydi, 59 turdagi mahsulot birinchi marta eksportga yo'naltirildi. Joriy yilning yetti oyida tovarlar va xizmatlar eksporti 7 milliard 331 million dollarni tashkil etgan, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 foiz ko'pdir", deyiladi xabarda.

Xizmatlar eksporti ulushini oshirgan holda eksport tuzilmasini tubdan diversifikatsiya qilish zarurligini qayta-qayta ta'kidlab, investitsiyalarni jalb etish masalalari ko'rib chiqilmoqda. Ayni paytda davlatimiz resurs-iqtisodiy imkoniyatlarimiz va inson salohiyatimizga mos keladigan jahon savdo tizimida o'zining munosib o'rnini topish maqsadida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha faol muloqotni boshladi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, investitsiya loyihalari tashabbuskorlari va eksportyorlarni amaliy va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli mexanizmlar ishlab chiqildi. Tashqi savdo erkinlashtirilib, tarifsiz to'siqlar, turli aksiz soliqlari va milliy valyutaning konvertatsiya qilinmasligi bartaraf etildi. Eng muhimi, tashqi savdo faoliyatini olib borish sezilarli darajada soddalashtirildi.

Umuman olganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, eksport faoliyatini olib borishdagi turli to'siqlarni olib tashlash, nazorat organlari faoliyatini

soddalashtirish orqali iqtisodiy faollikni ortishi, savdo harakatlari jadallashishi, narx va sifat jihatdan milliy mahsulotlar raqobatbardoshligining ortishiga erishiladi.

“Eksport imkoniyatlarimiz ko‘p. Xususan, paxta tolasi va meva-sabzavotni qayta ishlab, eksportbop mahsulotlar chiqarish mamlakatimizning rivojlanish nuqtalaridan biri bo‘lishi kerak. Shu orqali eksportni ko‘paytiramiz va yangi ish o‘rinlariga ega bo‘lamiz”, – dedi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, eksport mahsulotlari tan narxini pasaytirish va yangi bozorlarga kirish imkonini beradi. Natijada jahon bozorida mamlakat raqobatbardoshligining ortishiga erishiladi.

Ushbu tadqiqotda eksportga bog‘liq turli muammolar aniqlandi va toifalarga bo‘lingan ya‘ni protsessual muammolar, axborot muammolari, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish muammolari, xalqaro marketing muammolari, moliyaviy muammolar, eksportdagi ekologik muammolar va eksportda inson resurslarini boshqarish muammolari belgilandi:

- Protsessual muammo umumiy eksport muammolarga qo‘shgan hissasi muhim ahamiyatga ega. Protsessual huquq O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan shaxsiy huquq va erkinliklarni zaruratsiz va asossiz cheklanmasligiga xizmat qiladi.

- Axborot muammosi umumiy jihatdan mavjud eksport muammolariga salmoqli hissa qo‘shadi. Davlatlar o‘rtasidagi muzokaralar natijasida tuzilgan bitim yoki shartnoma to‘g‘risida hukumatning rasmiy xabari. Xalqaro huquqda ikki va undan ortiq davlatlar o‘rtasida olib boriladigan diplomatik muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar, shartnomalar yoki qabul qilingan boshqa qarorlar haqidagi xabar ikki yoki undan ortiq davlatlar tomonidan rasmiy e‘lon qilinadi. Ikki davlat o‘rtasida olib borilgan muzoqaralar haqidagi axborot.

- Ishlab chiqarishning umumiy eksport muammolariga qo‘shgan hissasi katta. Ishlab chiqarish — jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste‘mol va investitsiyalar uchun mo‘ljallangan tovarlar va xizmatlarga

aylantirish. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish zarur. Uning mazmunini mehnat jarayoni belgilaydi.

- Xalqaro marketing muammosining umumiy eksport muammolarida muhim hissasi mavjud. Xalqaro marketing - bu har ikki tomon uchun turli xil mahsulotlar, xizmatlar yoki boshqa tovarlarga nisbatan ikkidan ortiq mamlakatlar orqali marketing faoliyatini amalga oshirish usuli. Xalqaro marketing butun dunyo bo'ylab mijozlarga katta foyda keltiradi va bu faoliyatni amalga oshiradigan mijozlarning ko'p vaqtini va pulini tejaydi. Savdo nuqtasida eng yaxshi xizmatlarni taqdim etishda resurslarning mavjudligi va uning minimal muammolari. Xalqaro marketing, shuningdek, mijozlarning global ehtiyojlarini qondirish uchun butun dunyo miqyosida yoki juda katta miqyosda global marketing deb ham ataladi. Mijoz moliyaviy institutning xavfsiz veb-saytiga tashrif buyurib, marketing operatsiyasini amalga oshiradi va avval o'rnatilgan mijoz raqami va hisob ma'lumotlaridan foydalangan holda onlayn marketing ob'ektiga kiradi. Marketing operatsiyalarining turlari mahsulotlarga onlayn buyurtma berish, turli mahsulotlarni qidirish va ushbu platforma orqali turli marketing tadbirlarini amalga oshirish bo'lishi mumkin.

- Moliyaviy muammolar eksport muammolarida muhim ahamiyatga ega. Mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan moddiy boyliklar eksport tarkibi milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni bilan bog'liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlarga sanoat mahsulotlari, ayniqsa, mashinasozlik mahsulotlari va texnologiyalar eksport qilish xos bo'lsa, qoloq agrar iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar eksportida xom ashyo va oziq-ovqat asosiy rol o'ynaydi. Yakka ziroatchilik xo'jaliklari hukmron bo'lgan mamlakatlar eksportda 1—2 tovar turi asosiy o'rinni egallaydi. Yuklarni tashish, vositachilik operatsiyalari, turizm, ilmiy-texnika aloqalaridan va boshqalar xizmatlarni sotishdan olinadigan daromadlar ko'rinmas eksportni tashkil etadi va iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda uning ahamiyati ortib bormoqda.

- Eksportdagi ekologik muammolarning umumiy eksport muammolarida muhim hissasi mavjud.

- Inson resurslarini boshqarish eksportning jiddiy muammolaridan biri. Inson resurslarini boshqarish (Human Resources Management - HRM, yoki oddiygina HR) tashkilotning shu yerda ishlaydigan odamlarni yollash, boshqarish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ichki siyosati yoki ichki kompleks funksiyasi hisoblanib, inson faoliyatiga ta'sir qiluvchi barcha jarayonlar va dasturlar HR ning bir qismidir. Inson resurslari bu - tashkilotda ishlaydigan malakali mutaxassislardir. Inson resurslarini boshqarish aslida xodimlarni boshqarish bo'lib, korxonaning aktivlari bo'lgan ishchilarga e'tibor beradi. Shu munosabat bilan bunday xodimlar ba'zan inson kapitali deb ataladi.



Xulosa qilib aytganda eksportga tegishli protsessual muammolar, eksportga tegishli axborot muammolari, eksport bilan bog'liq ishlab chiqarish muammolari, eksportga tegishli moliyaviy muammolar, eksport bilan bog'liq ekologik muammolar va inson resurslarni boshqarish muammolari bir biri bilan chambarchas bog'liq. Har bir eksport muammosi boshqa omillar bilan bog'liqligi muhim

ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hukumat eksportni rag'batlantirishni yo'lga qo'yishi kerak. Izlanishlarga ko'ra, barcha xorijiy mamlakatlar bilan shartnoma tuzgan barcha bozor ma'lumotlari olinsa maqsadga muvofiq. O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish uchun, birinchidan, tadbirkorlik subyektlarini ko'paytirish kerak, ular mahsulot va xizmatlarni jahon standartlari darajasiga ishlab chiqarishga, ikkinchidan, yirik sanoat korxonalarini ishga tushirish va ular tomonidan jahon bozori talablariga mos bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, uchinchidan, inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish va inson kapitalini rivojlantirish uchun shart sharoitlar yaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Курпаяниди, К. И. (2021). Современные концепции и модели развития предпринимательства. Бюллетень науки и практики, 7(9), 425-444.

2. Курпаяниди, К.И. (2021). Научно-теоретические вопросы развития предпринимательства. Бюллетень науки и практики. 6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nauchno-teoreticheskie-voprosy-razvitiya-predprinimatelstva> (дата обращения: 16.11.2021). Ilyosov, A. (2020). Some problems in digital production and export of industrial products in the digital economy. Economics and finance. 3. 175-182 p.

3. Nabiyeva, N., Akhunova, S., & ets. (2021). Analysis of the State's Macroeconomic Policy. Revista Geintec-Gestao Inovacao E Tecnologias, 11(4), 4669-4680.

4. Abdullayev, A. M., & ets. (2020) Analysis of industrial enterprise management systems: essence, methodology and problems. Journal of Critical Reviews, 7 (14), 12541260. <https://dx.doi.org/10.17605/QSF.IQ/E6JFS> .

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: Eksportbop mahsulotlar chiqarish mamlakatimizning rivojlanish nuqtalaridan biri bo'lishi kerak. <https://kun.uz/uz/46189208#!>

ЭКСПОРТНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ - ЗАЛОГ РАЗВИТИЯ ЭКСПОРТНЫХ ОПЕРАЦИЙ

*А.Х. Муротов – доцент кафедры «Международные финансы и инвестиции»
УМЭД*

Расширение экспортного потенциала хозяйствующих субъектов и повышение конкурентоспособности их продукции на внешних рынках является одним из важнейших приоритетов экономического развития Республики Узбекистан. Практическая реализация данного направления сдерживается рядом проблем, к числу которых относится ограниченное использование известных в мировой практике инструментов экспортного финансирования.

При осуществлении экспортной деятельности национальные производители сталкиваются с риском несвоевременного осуществления оплаты за поставленные товары и услуги. В международной торговле выработаны механизмы, позволяющие эффективно решать подобные проблемы путем минимизации/разделения рисков и кратковременного финансирования сторон. Это осуществляется посредством внедрения и использования инструментов экспортного финансирования, таких как кредитование поставок, гарантии, факторинг и страхование, через специализированные правительственные или квази-правительственные финансовые учреждения. К числу таких учреждений относятся экспортно-импортные банки (эксимбанки) и экспортно-кредитные агентства (ЭКА). Как правило, эксимбанки занимаются экспортным кредитованием, выдачей гарантий и факторингом, а ЭКА – страхованием экспортных контрактов от коммерческих и политических рисков и выдачей экспортных гарантий.

Рассмотрим существующие государственные и коммерческие структуры Узбекистана, которые непосредственно принимают участие в финансировании экспорта.

В настоящее время в Узбекистане не создан экспортно-импортный банк. Функции эксимбанка по финансированию экспорта выполняют коммерческие банки республики. Коммерческие банки осуществляют расчеты по экспортным операциям и оказывают услуги по торговому финансированию. Торговое финансирование - это комплекс банковских продуктов и услуг по обслуживанию торговых контрактов для организации расчётов, финансирования операций и контроля за денежными и товарными потоками со стороны обслуживающего банка.

Операции торгового финансирования позволяют клиентам банка:

- использовать инструменты торгового финансирования для получения доступа к альтернативным источникам кредитования в виде отсрочек платежа или финансирования на длительный срок;
- минимизировать риски, связанные с не поставкой товара;
- сокращать доли авансовых платежей;
- минимизировать затраты по внешнеторговой сделке;
- повышать прозрачность бизнеса и расширить возможность выхода на мировые рынки товаров и услуг.

Основные инструменты торгового финансирования, предлагаемые банками:

Торговое финансирование. Экспортеры могут получать кредиты для покрытия расходов по поставкам товаров и услуг зарубеж.

Аккредитивы. Данный финансовый инструмент является, по сути обещанием банка выплатить бенефициару за счет своего заказчика определенную сумму в согласованной валюте, если продавец (бенефициар) представит в установленный срок документы, соответствующие условиям Аккредитива и подтверждающие отгрузку товара (оказание услуг).

Банковские гарантии. Это письменное обязательство банка выплатить кредитору (бенефициару) гарантированную сумму при получении письменного запроса, подтверждающего, что должник (принципал) не выполнил свои обязательства в соответствии с условиями гарантии, которая

выдана в рамках контракта между бенефициаром и принципалом. Банковские гарантии также имеют международную правовую надежность.

Факторинговые услуги. Факторинг – это покупка банком денежных требований поставщика к покупателю и их инкассация за определенное вознаграждение. Факторинг, как инструмент торгового финансирования, позволяет экспортерам сразу получить расчет за отгруженную продукцию и направлять средства на покупку сырья или другие нужды, что способствует ускорению оборачиваемости оборотных средств и, соответственно, ускорению производства экспортной продукции, а также возврата долгов.

Страхование экспортных операций на рынке Узбекистана осуществляется АО «Компания экспортно-импортного страхования «Узбекинвест». На компанию возложены функции государственного агентства по страхованию экспортных рисков (ЭКА) Республики Узбекистан.

Компания предоставляет широкий спектр страховых продуктов по защите интересов на зарубежных рынках от политических, коммерческих или логистических рисков, такие как:

- Страхование кратко- и долгосрочной дебиторской задолженности экспортера
- Страхование кредита поставщика (товарный кредит на условиях отсрочки платежа)
- Страхование от невыполнения банком иностранного покупателя обязательств по аккредитиву
- Страхование кредита на пополнение оборотных средств экспортера (предэкспортное финансирование)
- Страхование кредит покупателю (экспортные кредиты узбекских коммерческих банков)
- Страхование экспортного факторинга
- Страхование авансового платежа по импортному контракту
- Страхование от расторжения экспортного контракта

- Страхование логистических рисков

Информационно-аналитическое сопровождение экспортной деятельности, а также финансовая поддержка экспортеров осуществляется Агентством продвижения экспорта. Это государственный институт поддержки не сырьевого экспорта, предоставляющий узбекским экспортёрам широкий спектр финансовых и нефинансовых мер поддержки экспорта для повышения конкурентоспособности отечественной продукции на мировом рынке и решения существующих экспортных барьеров при осуществлении внешнеэкономической деятельности.

Агентство осуществляет финансовую поддержку экспортеров на двух направлениях.

1. Оказание целевого финансового и информационного содействия предприятиям-экспортерам, связанных с внедрением международных систем стандартизации и сертификации. Экспортеры могут получить международные сертификаты, а также зарегистрировать свою продукцию в уполномоченных органах зарубежных стран за счет средств Агентства.

2. Разработка предложений по внедрению наиболее эффективных способов доставки и частичное субсидирование транспортировки, выпускаемой субъектами предпринимательства продукции. Агентством проводится постоянный анализ логистических компаний на внутреннем и иностранном рынке, для выявления наиболее выгодных маршрутов в плане цены, расстояния и качества доставки узбекских товаров зарубеж. Экспортеры могут пользоваться услугами Агентства в трех направлениях:

- Нахождение оптимальных маршрутов поставки продукции
- Нахождение оптимальных транспортных средств для транспортировки груза
- Компенсация транспортных затрат по ж/д транспорту

В 2022 году Агентство оказало финансовую помощь предприятиям-экспортерам в следующих направлениях:

- выделено 250 миллионов долларов США (80 компаний) пред экспортное финансирование для 350 предприятиям республики;
- возмещены транспортные расходы 500 предприятий на сумму 418 млрд. сумов;
- оказана финансовая помощь 500 предприятиям на покрытие расходов на участие в международных выставках и ярмарках на сумму 67,8. сумов;
- выплачено 260 предприятиям 45 млрд сумов на внедрение международных стандартов и сертификатов³⁷.

Таким образом, в Узбекистане функционирует система государственных и коммерческих институтов, которая оказывает широкий спектр услуг по финансированию экспортных операций.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI RIVOJLANISHIDA TURIZM XIZMATLARINING O‘RNI

*Abdullayev Zafarbek Safibullayevich – Toshkent moliya instituti tadqiqotchisi
Abdullabekova Noilaxon G‘ofurjon qizi – Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot
fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishida turistik xizmatlarning iqtisodiyotimiz rivojlanishi va aholi daromadlarini o‘shidagi o‘rni, bu borada davlatimiz tomonidan olib borilgan ishlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mehmonxonalar xizmatiga bo‘lgan talabning o‘shish sabablari keltirib o‘tilgan. O‘rganishlar natijasida xulosa qilgan holda fikr va mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm xizmatlari, xizmatlar sohasi, mehmonxona xizmati, kadrlar malakasi, qishloq turizmi, ekologik turizm.

Abstract: In this article, the role of tourist services in the development of the service sector in the development of our economy and the growth of the population's

³⁷ <https://telegra.ph/ZHorij-jilda-YAngi-%D0%8Ezbekiston--ra%D2%9Bobatbardosh-ma%D2%B3sulotlar-yurti-dasturi-doirasida-ehksportchi-korhonalari-soni-200-taga-etkazilad-03-31>

income, the work carried out by our state in this regard is considered. The reasons for the increase in the demand for hotel services are also mentioned. Based on the results of studies, opinions and comments are given.

Keywords: tourism services, service sector, hotel service, personnel qualification, rural tourism, ecological tourism

Аннотация: В данной статье рассматривается роль туристических услуг в развитии сферы услуг, развитии нашей экономики и росте доходов населения, работа, проводимая нашим государством в этом направлении. Также названы причины увеличения спроса на гостиничные услуги. По результатам исследований даны мнения и комментарии.

Elchi O‘zbekistonda barqaror energetikani rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan foydalanish⁵⁸ imkoniyati mavjudligi haqida so‘z yuritgan. Qayta tiklanuvchi energetika uskunalari ishlab chikarishda ishlatiladigan mis qazib olishni istiqbolli va zurrur yo‘nalish deb ta’kidlagan.⁵⁹ Shuningdek, o‘sib kelayotgan ishchi kuchini real iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritishlari uchun dual ta’lim tizimi yaratilishida Germaniya ta’lim muassasalari ko‘maklasha olishini ta’kidlagan.⁶⁰

O‘zbekiston o‘ziga berilgan GSP+ kelishuvi a’zolidan foydanishi katta imkoniyat yaratishini va u orqali O‘zbekiston tovarlarining Yevropa ittifoqi bozorlariga bojsiz kirib borishi imkoniyati mavjudligini aytib o‘tgan. Shu bilan birga elchi katta loyihalar uchun logistika sohasidagi masalalar, monopoliya va infratuzilma sharoitlarining yaxshi emasligi Germaniya investorlarini biroz o‘ylantirayotganligini aytib o‘tgan.

Bundan kelib chiqadiki, O‘zbekiston hukumati Germaniyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini mamlakatga jalb qilish uchun ko‘proq amaliy ishlarni olib borishi lozim. Buning uchun O‘zbekiston kompaniyalari Germaniya kompaniyalari bilan ko‘proq hamkorlik qilishi, tadbirlar, forumlar, uchrashuvlar, tashriflar o‘tkazishi, investorlarga sharoit yaratilishi kerak. O‘zbekiston Germaniyaning ekstraktiv investitsiyalaridan ko‘ra **sifatli investitsiyalar**ini jalb qilishga asosiy e’tiborini qaratishi lozim⁶¹.

⁵⁸ Gulyamova G., Abdullaev A., Sharipova U. Peculiarities and modern trends in world energy and the development of global pipeline transport networks //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 4. – C. 388-392.

⁵⁹ Германия инвесторлари Ўзбекистон мис саноатининг имкониятлари билан қизиқишмоқда. https://dunyo.info/cyrl/site/inner/germaniya_investorlari_ozbekiston_mis_sanoatining_imkoniyatlari_bilan_qiziqish_moqda-6cX

⁶⁰ Германия тажрибаси асосида Ўзбекистонда дуал таълим тизими ривожлантирилади. https://dunyo.info/cyrl/site/inner/germaniya_tazhibasi_asosida_ozbekistonda_dual_taalim_tizimi_rivozhlantiriladi-w9k

⁶¹ N.Malikov, The importance of attracting quality investments, International Affairs, 136-144.

Tan olish kerak, Germaniya texnologiyalari qimmat, biroq ushbu texnologiyalarni mamlakatga jalb qilish bilan O‘zbekiston o‘zida mavjud resurslarni qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energetika sohasini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasida uzoq muddatli sanoatlashuv dasturini⁶² tuzish ikki davlat uchun ham samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Germaniya uzoq muddatli, eksportini qo‘llab-quvvatlash, texnologiyalarga sarmoya kiritish va barqaror iqtisodiyoti bilan jahonda ilg‘or davlatlardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning Germaniya bilan hamkorligini oshirishi, o‘ziga investitsiyalar jalb qilishi, uzoq muddatli kelishuvlarga erishishi O‘zbekistonga yuqori darajadagi texnologiyalarni kirib kelishiga, iqtisodiyotni o‘sishiga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, infratuzilmalarning rivojlanishiga, sanoat sohasining samaradorligini oshishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu tezis Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan “Toshkent Jan Mone nomidagi Yevropa tadqiqotlari bo‘yicha ilg‘or tajriba markazi (620528-EPP-1-2020-1-UZ-EPPJMO-CoE)” loyihasi doirasida tayyorlandi.

⁶² Bakoeva G. M., Ibodullaev S. T. Foreign trade activities of Uzbekistan: problems and opportunities for development //International journal of trends in marketing management. – 2021. – T. 9. – №. 1.

ЗАЩИТА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Алиева Махлиё Гафур кизи – Магистрант УМЭД

Институт интеллектуальной собственности представляет собой ядро современной глобальной экономики — появление новых результатов интеллектуальной и творческой деятельности, их правовая охрана на внешних рынках предшествуют материальному движению товаров и услуг. На горизонте 2025 года роль интеллектуальной собственности и цифровой инфраструктуры оборота интеллектуальных прав станет ключевым фактором, определяющим рост национальной экономики и, как следствие, влияния страны в мире.

Поэтому в Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы поставлено цель 97: **«Вступление во Всемирную торговую организацию и углубление процессов интеграции с Евразийским экономическим союзом, где отмечено, что необходимо «разработка соответствующих предложений по приведению национального законодательства в сферах технического регулирования, санитарных и фитосанитарных мер и защиты интеллектуальной собственности в соответствии с требованиями соглашений Всемирной торговой организации (ВТО)»⁶³.**

Нужно отметить, что человечество имеет широкий доступ ко всем достижениям интеллектуальной творческой деятельности и вытекающей отсюда обязанности вознаграждать тех, кто способствует возникновению и распространению этих достижений. Во Всеобщей декларации прав человека, принятой Генеральной Ассамблеей ООН в 1948 г., авторские права были отнесены к основным правам человека. В статье 27 Декларации говорится:

⁶³ Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы», № УП-60 от 28.01.2022 г., Национальная база данных законодательства, № 06/23/21/0085, 10.02.2023 г.

«1. Каждый человек имеет право свободно участвовать в культурной жизни общества, наслаждаться искусством, участвовать в научном прогрессе и пользоваться его благами.

2. Каждый человек имеет право на защиту его моральных и материальных интересов, являющихся результатом научных, литературных и художественных трудов, автором которых он является»⁶⁴.

Укрепление экономического фундамента государства предполагает всестороннюю правовую охрану результатов интеллектуальной деятельности, созданных человеческим разумом⁶⁵. Поэтому интеллектуальная собственность охраняется законом. Государство содействует развитию культуры, научных и технических исследований на благо общих интересов. Свободу литературного, художественного, научного, технического и других видов творчества, преподавания и охрану интеллектуальной собственности гарантирует статья 53 Конституции Республики Узбекистан. Он гласит: «Каждому гарантируется свобода научного, технического и художественного творчества, право на пользование достижениями культуры. Интеллектуальная собственность охраняется законом»⁶⁶.

Также, государство заботится о культурном, научном и техническом развитии общества. Согласно ст. 79 Конституции Республики Узбекистан: «Государство создает условия для интеллектуального, творческого, физического и нравственного формирования и развития молодежи, реализации ее прав на образование, охрану здоровья, жилье, трудоустройство, занятость и отдых»⁶⁷.

Правовой аспект понятия интеллектуальной собственности состоит в ее понимании как совокупности прав субъекта по управлению объектами собственности (вещами). В трактовке юридической энциклопедии

⁶⁴ Права человека. Основные международные документы. – М.: «Международные отношения», 1989 г.

⁶⁵ Тошев Б.Н., Халқаро ташкилотларнинг муаллифлик ҳуқуқига оид актларнинг ҳуқуқий мақоми, «Voris-Nashriyot», Тошкент, 2007. – 3 с.

⁶⁶ Конституция Республики Узбекистан: Принята 8 декабря 1992 года на XXI сессии Верховного Совета РУз двенадцатого созыва (с изм. по состоянию на 2021 г.) – Т.: «Ўзбекистон», 2021.

⁶⁷ Там же.

интеллектуальная собственность представлена как исключительное право гражданина или юридического лица на результаты интеллектуальной деятельности и приравненные к ним средства индивидуализации.

Объединяя правовой, экономический и социологический подходы и отмечая междисциплинарность понятия «интеллектуальная собственность», сущность и значение которой варьируется в зависимости от сферы его применения, А.Н. Прохоров отмечает, что интеллектуальная собственность представляет собой совокупность социально-экономических отношений, связанных с созданием, распределением, обменом и потреблением результатов творческой деятельности человека, с одновременной фиксацией комплекса исключительных прав на продукты интеллектуального труда⁶⁸.

В целом законы, направленные на защиту авторского права и смежных прав, регулируют общественные отношения в данной области⁶⁹. Поэтому основным нормативно-правовым документом, регулирующим права по интеллектуальной деятельности в Узбекистане, является Гражданский Кодекс Республики Узбекистан, а именно Раздел 4 «Интеллектуальная собственность». В ней перечислены объекты интеллектуальной собственности, и подробно расписано авторское право, смежные права, право на промышленную собственность (право на изобретение, полезную модель, промышленный образец) и т. д.⁷⁰.

Содержание понятия «интеллектуальная собственность» определено в ст. 1225 ч. 4 Гражданского кодекса Республики Узбекистан: «интеллектуальная собственность (ИС) рассматривается как совокупность исключительных прав физического или юридического лица на результаты интеллектуальной и прежде всего творческой деятельности, а также на приравненные к ним по правовому режиму средства индивидуализации

⁶⁸ Прохоров А.Н. Основные подходы к определению сущности понятия «интеллектуальная собственность» // Вестник Тюменского государственного университета. 2015. № 11. С. 21 - 29.

⁶⁹ Тошев Б.Н., Халқаро ташкилотларнинг муаллифлик ҳуқуқига оид актларнинг ҳуқуқий мақоми, «Voris-Nashriyot», Тошкент, 2007. – 5 с.

⁷⁰ Гражданский кодекс Республики Узбекистан, Часть вторая от 01.03.1997, Национальная база данных законодательства, 04.11.2022 г., № 03/22/800/0990.

юридических лиц, продукции, работ и услуг (фирменное наименование, товарный знак, знак обслуживания и т.п.)»⁷¹.

В научной литературе можно найти несколько определений объектов интеллектуальной собственности, но наиболее распространенным является определение Парижской и Бернской конвенции. Объектами интеллектуальной собственности являются все права, включая исключительные имущественные и не имущественные. Такие права могут относиться к «литературным, художественным и научным произведениям; исполнительской деятельности артистов, звукозаписи, радио- и телевизионным передачам; изобретениям во всех областях человеческой деятельности; научным открытиям; промышленным образцам; товарным знакам, знакам обслуживания, фирменным наименованиям и коммерческим обозначениям; защите против недобросовестной конкуренции; а также все другие права, относящиеся к интеллектуальной деятельности в производственной, научной, литературной и художественной областях»⁷².

Таким образом, в соответствии с этим международным договором интеллектуальная собственность есть совокупность прав на перечисленные объекты.

Однако на наш взгляд это определение не достаточно полное, так как не всякий объект интеллектуальной собственности зарегистрирован, а некоторые из них засекречены, как, например, ноу-хау, более полное определение даёт «Всемирная декларация по интеллектуальной собственности», принятая ВОИС 26 июня 2000 г. Согласно Декларации «...термин «интеллектуальная собственность» означает любую собственность, признаваемую по общему согласию в качестве интеллектуальной по характеру и заслуживающую охраны, включая, но не ограничиваясь научными и техническими изобретениями, литературными или художественными произведениями, товарными знаками и

⁷¹ Там же.

⁷² Асфандиаров Б.М., Казанцев В.И. Право интеллектуальной собственности: Учебное методическое пособие. М.: Издательство "Экзамен", 2007. - 160 с.

указателями деловых предприятий, промышленными образцами и географическими указаниями⁷³.

Нормы об авторских правах распространяются, безусловно, и на Интернет. Нет никаких ограничений или специальных оговорок о том, что в Интернете нормы авторского права действуют как-то иначе. В глазах закона нет разницы - опубликована фотография (авторская работа) в журнале или на web-сайте.

Размещая свои работы в Интернете, авторы сохраняют на них все права. Люди выставляют в Интернете свои статьи или фотографии для того, чтобы другие могли ознакомиться с ними, а не для того, чтобы они могли делать с ними все, что хотят. Автору принадлежит эксклюзивное право решать, как его работа будет использована. Если автор не указал, что разрешает свободно использовать свою работу, следует считать, что такого разрешения нет, и работу копировать нельзя. В противном случае нарушается право автора на неприкосновенность произведения и защита произведения от искажений ст. 1051 Гражданского кодекса Республики Узбекистан.

Проблема не в том, что в Интернете невозможно обеспечить правовую защиту авторских прав из-за отсутствия ограничений в копировании, а в том, что пока никто не пытался пресечь их нарушение имеющимися в нашем распоряжении законодательными средствами.

Как мы видим, в современной эпохе, называемой «информационным обществом», бурно развивается интеллектуальная деятельность человека. Эта деятельность имеет значение не только для человека, но и для социального и экономического развития любого государства. Она является составной частью безопасности государства, поскольку недостаточный интеллектуальный потенциал, являющийся, как правило, следствием недостаточным развитием нормативно-правовой базы, ведет к неконкурентоспособной экономике, слабому государству. Поэтому в настоящее время остро стоит необходимость

⁷³ Всемирная декларация по интеллектуальной собственности, от 26 июня 2000 г. /// URL: <https://elementy.ru/Library9/DeclWW.htm>

регулирования вопросов защиты в Глобальной сети, регламентации Интернета, как наиболее важного элемента новых информационных технологий.

Список литературы

1. Всемирная декларация по интеллектуальной собственности, от 26 июня 2000 г. /// URL: <https://elementy.ru/Library9/DeclWW.html>

2. Конституция Республики Узбекистан: Принята 8 декабря 1992 года на XXI сессии Верховного Совета РУз двенадцатого созыва (с изм. по состоянию на 2021 г.) – Т.: «Ўзбекистон», 2021.

3. Гражданский кодекс Республики Узбекистан, Часть вторая от 01.03.1997, Национальная база данных законодательства, 04.11.2022 г., № 03/22/800/0990.

4. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы», № УП-60 от 28.01.2022 г., Национальная база данных законодательства, № 06/23/21/0085, 10.02.2023 г.

5. Асфандиаров Б.М., Казанцев В.И. Право интеллектуальной собственности: Учебное методическое пособие. М.: Издательство "Экзамен", 2007. - 160 с.

6. Права человека. Основные международные документы. –М.: «Международные отношения», 1989 г.

7. Прохоров А.Н. Основные подходы к определению сущности понятия «интеллектуальная собственность» // Вестник Тюменского государственного университета. 2015. № 11. С. 21 - 29.

8. Тошев Б.Н., Халқаро ташкилотларнинг муаллифлик ҳуқуқига оид ақтларнинг ҳуқуқий мақоми, «Voris-Nashriyot», Тошкент, 2007. – 251 с.


YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARIDA PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING HOLATI

*Saidisaqov Saidavzal Saidazam o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Bank-
moliya akademiyasi tinglovchisi*

Jahon amaliyoti tahlili ko'rsatishicha ijtimoiy ta'minotning qo'shimcha manbalarini topish zaruriyatga aylanib bormoqda. Pensiya ta'minoti tizimini tashkil etishning yangi ta'limotlarini tanlash va pensiya yoshidagi fuqarolarning farovon hayotini ta'minlash muammosi mamlakatlar oldidagi yechimi kutayotgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi.


Iqtisodiy jihatidan rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda davlat pensiya ta'minoti tizimi uzoq yillardan rivojlanish tarixiga ega. Mazkur davlatlarda davlat pensiya fondlariga tushumlar ishchilar va ish beruvchilar tomonidan to'lanuvchi badallar hisobiga amalga oshiriladi. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta badallari miqdorini oshirish bilan pensiya fondlari daromadlarini ko'paytirish chora-tadbirlari ko'rildi. "XIX asrning 70-yillaridan boshlab ikkinchi jahon urushiga qadar Yevropa va Amerikadagi barcha mamlakatlarda davlat sug'urtasi to'liq qamrab oldi. Jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishdan foydalanishlari ta'minlandi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat tizimi yaratildi. Ijtimoiy dasturlarni budjetdan moliyalashtirish yo'lga qo'yildi, davlat ijtimoiy sug'urtasi sifatidagi ijtimoiy siyosatning yangi mexanizmi ishlay boshladi"⁷⁴. Rivojlangan davlatlarda yuzaga kelayotgan pensiya ta'minoti tizimidagi hatarlar albatta O'zbekistonga ham ta'sir qiladi, shu yuzasidan bir qancha choralar, yechimlarni pensiya tizimini isloh qilishda qo'llash orqali yuzaga kelishi kutilayotgan muammolarning oldini olish hamda aholi farovon turmush kechirishiga zamin yaratish mumkin.

⁷⁴ Vaxabov A.V. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimini isloh etish istiqbollari. "Pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusidagi O'zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. – T.: O'MU. 2017-yil 15-noyabr. – B. 67.



1-rasm. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sug'urtaviy pensiya ta'minotining tamoyillari

Xorijiy mamalakatlar amaliyoti tahlilidan ko'rinadiki, Pensiya fondlarining iqtisodiy ahamiyati shundan iboratki, u iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy moliyaviy institutlardan biri sifatida maydonga chiqib, jamg'arma mablag'larini real iqtisodiyotga investitsiyalash orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hususan, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tahlil uchun tanlab olingan rivojlangan mamlakatlardagi Pensiya fondlari aktivlarining qiymati 35,3 trillion AQSh dollaridan ortiq va bu raqam o'rganilgan mamlakatlar YaIMning o'rtacha 80 foizini tashkil qiladi.



2-rasm. Yevropa mamlakatlarida aholi yoshining o'zgarish dinamikasi (foizda)⁷⁵

Yevropa mamlakatlarida aholi strukturasi 2020-yilga kelib 60 yoshdan oshgan aholi 26,9 foizni tashkil etgan va bu ko'rsatkich yildan-yilga o'sish

⁷⁵ Eurosts: Europe in Figures, 2017 to'plam ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

tendentsiyasiga ega bo‘lib 2060-yilga borib ushbu ko‘rsatkich 33,5 foizni tashkil qilishi kutilmoqda. Bu demografik omillarni inobatga olgan holda pensiya ta‘minoti tizimida islohotlar amalga oshirilishiga sabab bo‘ladi.

1-jadval

Yevropa ittifoqi mamlakatlarida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarib borishi prognozlari (foiz hisobida)⁷⁶

Ko‘rsatkichlar	2020-2040- y.	2040-2060- y.	2008-2060- y.
YaIM darajasining o‘sishi	1,7	1,3	1,7
Umumiy aholi soni o‘sishi	0,0	-1,6	2,1
15-64 yoshdagi aholi soni (mehnat yoshidagi aholi)	-4,4	-10,2	-15,0
Keksa aholining bog‘liqlik koeffitsiyenti	31,1	53,5	28,1

Rivojlangan mamlakatlar pensiya ta‘minoti muammolarini hal etishning hozirgi bosqichida pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa, fuqarolarning ijtimoiy ta‘minot huquqlarini ta‘minlanishi va kelgusida ularni munosib pensiya bilan ta‘minlash kafolatlarini yaratish hamda pensiya ta‘minotiga oid qonunchilik normalarini qayta ko‘rib chiqish, pensiya sohasida ularga nisbatan ijtimoiy adolat printsiplarini buzilishini oldini olishga oid huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, pensiya ta‘minotiga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bilan bog‘liq masalalarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

⁷⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (www.stat.uz).

YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARINING TAJRIBASINI O‘ZBEKISTON PENSIYA TA’MINOTI TIZIMIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

*Jumabayeva Kumush Botir qizi – O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi*

Jahon mamlakatlari pensiya ta’minoti tizimlarida yuz berayotgan o‘zgarishlarni, xususan, rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini, undagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish mamlakatimizda pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Har qanday mamlakatda pensiya ta’minoti keksa yoshdagi fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning muhim yo‘nalishlaridandir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda jami aholi tarkibida keksalar ulushining yuqoriligi ularning pensiya ta’minotini yaxshilash orqali turmush farovonligini ta’minlashdagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. O‘z navbatida, ana shunday ustuvor vazifalarning samarali ijrosini ta’minlashda pensiya tizimini isloh etish yo‘nalishlari bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish va pensiya tizimiga ta’sir etuvchi demografik omillarni ilmiy tadqiq etish orqali milliy pensiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayd etish lozimki, “Yevropa ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy soha byudjetining 60 foizi sug‘urta ajratmalari hisobidan shakllanadi”⁷⁷.

Yevropa ittifoqi mamlakatlarida sug‘urtaviy pensiya ta’minoti tizimi quyidagi tamoyillar asosida shakllandi:

- iqtisodiy faol aholini sug‘urtalash;
- pensiya to‘lovlarini ishchilar va sug‘urtalanganlarning sug‘urta badallari hisobidan moliyalashtirish;
- amalga oshirilayotgan pensiya to‘lovlarining sug‘urtalanuvchining avvalgi daromadlari va sug‘urta stajiga bog‘liqligi.

⁷⁷ Ижаева А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерации в посткризисный период: автор... к.э.н. – Москва: ФГБОУ ВПО Гос. Унив. Управ. 2013. – С. 31.

**Yevropa ittifoqi mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimiga davlat
xarajatlari prognozi, YaIMga nisbatan foizda⁷⁸**

Mamlakatlar	2030 y.	2040 y.	2050 y.	2060 y.
Avstriya	16,7	16,5	16,4	16,1
Belgiya	15,5	16,5	16,7	16,6
Chexiya	8,9	9,7	11,0	11,8
Daniya	10,7	10,3	9,6	9,5
Estoniya	8,2	8,1	8,0	7,7
Finlandiya	15,6	15,2	14,9	15,2
Fransiya	14,9	15,2	15,1	15,1
Germaniya	12,0	12,7	13,0	13,4
Gretsiya	14,1	14,9	15,4	14,6
Vengriya	11,1	12,1	13,5	14,7
Irlandiya	9,0	10,0	11,4	11,7
Italiya	14,5	15,6	15,7	14,4
Lyusemburg	14,0	16,5	18,1	18,6
Niderlandiya	9,1	10,4	10,4	10,4
Polsha	10,9	10,3	10,0	9,6
Portugaliya	13,2	13,1	13,1	12,7
Slovakiya	9,5	10,6	12,2	13,2
Sloveniya	13,3	15,8	17,9	18,3
Ispaniya	10,6	12,3	14,0	13,7
Shvetsiya	10,1	10,2	9,9	10,2
Buyuk Britaniya	7,7	8,2	8,2	9,2
EI27	11,9	12,6	13,1	13,2

⁷⁸ Могилко С., Недосекин А. Реформирование системы пенсионного обеспечения: мировой опыт: <http://pensionreform.ru/58599> - internet manbasi asosida tayyorlangan.

Iqtisodiy va demografik o'zgarishlar sezilarli darajada yuz berayotganligi ham pensiya ta'minoti qamrovi miqyosiga faol ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, pensiyaga chiqish yoshining qanday belgilanishi muhim hisoblanadi. Ba'zi Yevropa ittifoqi davlatlarida pensiya yoshiga etgandan so'ng ham ish faoliyatini davom ettirish holatlariga ruxsat berilgan. Bu esa, pensiya yoshidan o'tgandan keyingi mehnat faoliyati pensiya miqdorini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Masalaning ikkinchi jihati, ba'zi hollarda mehnatga layoqatlilar bilan pensionerlar o'rtasidagi nisbatning oshishiga sabab bo'ladi.

EI mamlakatlarning ba'zilarida pensiyaga chiqish yoshi boshqalaridan ko'proq bo'lishi mumkin. Siz hozirgi yashash joyingizdagi (yoki oxirgi marta ishlagan) mamlakatdan pensiyani faqatgina shu mamlakatdagi qonuniy pensiyaga chiqish yoshiga yetgach olishingiz mumkin⁷⁹.

Pensiya miqdorini hisoblashda bir nechta omillar hisobga olinadi:

- Sizning yashash joyingizdagi mamlakatda yig'ilgan yillar yoki trimestrlar soni;
- Chet elda ishlagan yillar yoki trimestrlar soni (ba'zi mamlakatlarda, masalan, Lyuksemburg, Germaniya va ko'plab boshqa mamlakatlarda, trimestrlar uchun to'langan hisob-kitoblarni talab qilish uchun bir nechta yillar to'planishi kerak).

Sizning yashash joyingizdagi mamlakat va siz ishlagan mamlakatlardagi rasmiy pensiyaga chiqish yoshi (agar siz Frantsiyada 62 yoshda pensiyaga chiqsangiz va 7 yil Daniyada ishlagan bo'lsangiz, siz Daniyadagi pensiyangizni Daniyadagi pensiyaga chiqish yoshiga yetguncha, ya'ni 4 yil keyin olishingiz mumkin)¹.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagicha qisqacha xulosaga kelish mumkin hisoblanadi. Eng avvalo Yevropa ittifoqi mamlakatlarida mavjuda ko'p pog'onali pensiya tizimining maqbul jihatlarini mahalliy pensiya tizimiga istiqbolda joriy qilish, hamda shuni ta'kidlash joizki, pensiya tizimi samarali amal

⁷⁹ https://europa.eu/youreurope/citizens/work/retire-abroad/state-pensions-abroad/index_en.htm –rasmiy sayti ma'lumotlari.

qilishi uchun pensionerlar va ishlayotgan fuqarolar o'rtasida ma'lum darajada muvozanat bo'lishi lozim. Biroq, demografik prognozlar respublikada aholining keksayish jarayoni nisbatan tezlashishini va bu muvozanat o'zgarishini, ya'ni keksalarning iqtisodiy faol aholiga to'g'ri keladigan demografik yuk ortib borishini ko'rsatmoqda. Bu holat iqtisodiy faol aholidan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari bozor nuqtai nazaridan kamayishini, ya'ni ishlayotganlarning badallari pensiyalarni to'lash uchun ham yetmasligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, hozirdan Pensiya jamg'armasining moliyaviy holatini yaxshilashni talab etadi.

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIGA O'TISH MEXANIZMINING YEVIROPA ITTIFOQI VA GERMANIYA TAJRIBASI

*Kushbakova Surayyo -
Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti, PhD tayanch doktoranti*

Yevropa Ittifoqi (YeI) barqaror sof energiyaga o'tish va iqlim o'zgarishini yaxshilash bo'yicha mintaqalar orasida yetakchilardan biri hisoblanadi. Qayta tiklanuvchi energiyaning (QTE) yuqori ulushlarga o'tishi ko'plab Yevropa mamlakatlarida allaqachon rivojlanib, yuqori ko'rsatkichlarda bo'lib kelmoqda. YeI da 90-yillarning boshlarida "Energy Strategy 2020" strategiyasi keyinchalik "Energy Strategy 2050" strategiyalari issiqxona gazlar chiqindilarni chiqarishni 80-95% ga qisqartirish maqsadida ishlab chiqilgan edi⁸⁰.

Yevropa Komissiyasi tomonidan qabul qilingan "Yevropa Yashil Kelishuvi" 2020 yilda qabul qilinishiga qaramay⁸¹, Yevropa mamlakatlarining Rossiya bilan Ukraina kelishmovchiliklari natijasida import qilinadigan yoqilg'ilarga juda bog'liq bo'lgan markazlashtirilgan energiya tizimiga nisbatan xarajatlarni mintaqaning iqtisodiyotiga keskin kuchaytirib yubordi.

⁸⁰ "Малая возобновляемая энергетика в призме зарубежного опыта", З.У. Саипов, Г.А. Арифджанов, Журнал «Экономическое обозрение» №5 (257) 2021

⁸¹ [A European Green Deal \(europa.eu\)](http://A.European.Green.Deal.europa.eu)

Yevropa Ittifoqi LUT Energiya Tizimiga O'tish Modeliga⁸²⁸³⁸⁴ asosan QTEni rivojlanishdagi ikki bosqichdagi yondashuvi asosida o'tish tizimini qo'llaydi: dastlabki bosqichda, Yevropa bo'ylab iste'molchilarning kam xarajatli energiya iste'moli ulushini aniqlagan holda 2020 yildan 2050 yilgacha bo'lgan har besh yil oraliqlarda sof energiya tizimiga bosqichma-bosqich o'tish.

Dastlabki birinchi yondashuv bo'yicha, ta'minlovchilar energiya ishlab chiqaruvchilar hamda iste'mol qiluvchilar sifatida qaraladi (elektr energiyasi va isitish tizimi bo'yicha) va ushbu holat integrasiyalashgan energiya tizimida muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchi bosqich yondashuvida iste'molchilar o'z-o'zini energiya bilan ta'minlanganlaridan so'ng, integrallashgan barcha sohalaridagi energiyalarni bosqichma-bosqich o'tish davrlardagi optimal qiymati shakllantiriladi. Optimallashtirishning maqsadi energiya tizimining umumiy narxini minimallashtirishdir va quyidagi modellarni o'z ichiga oladi⁸⁵:

- **elektr energiyasini ishlab chiqarish texnologiyalari:** qayta tiklanadigan energiya (RE), qazilma va yadro texnologiyalari;
- **isitish tizimida issiqlik ishlab chiqarish texnologiyalari:** qayta tiklanadigan va yoqilg'i manbalaridan foydalangan holda;
- **energiya saqlash texnologiyalari:** elektr, issiqlik, gaz va CO2 saqlash texnologiyalari;
- **V2G⁸⁶:** avtomobilni tarmoqqa ulash texnologiyasi, aqlli elektr avtomobillarni zaryadlash;
- **Quvvatdan yoqilg'iga, quvvatdan kimyoviy moddalarga:** sintetik elektron yoqilg'i va elektron kimyoviy moddalar ishlab chiqarish;

⁸² LUT – Lahti University of Technology tomonidan ishlab chiqilgan model bo'lib, energiya, issiqlik, transport va sanoat sektoridan energiya talabini qoplaydigan integratsiyalashgan energiya tizimi hisoblanadi

⁸³ Bogdanov D, Ram M, Aghahosseini A, Gulagi A, Oyewo AS, Child M, Caldera U, Sadovskaia K, Farfan J, De Souza Noel Simas Barbosa L, et al. "Low-cost renewable electricity as the key driver of the global energy transition towards sustainability" Energy. 2021;227:120467. doi:10.1016/j.energy.2021.120467.

⁸⁴ Ram M., Bogdanov D., Satymov R., Lopez G., Mensah T.N.O., Sadovskaia K., Breyer C. (2022) "Accelerating the European renewable energy transition". LUT University and Greens European Free Alliance, Lappeenranta, Brussels.

⁸⁵ Bogdanov D, Ram M, Aghahosseini A, Gulagi A, Oyewo AS, Child M, Caldera U, Sadovskaia K, Farfan J, De Souza Noel Simas Barbosa L, et al. "Low-cost renewable electricity as the key driver of the global energy transition towards sustainability" Energy. 2021;227:120467. doi:10.1016/j.energy.2021.120467.

⁸⁶ V2G- Vehicle to grid, avtomobillarni tarmoqqa(elektr energiya) ulash

- Va elektr energiyasini uzatish texnologiyalari.


1990-yillarning boshida **Germaniya** QTE manbalaridan, jumladan, shamol energiyasidan, quyosh energiyasidan va kichik gidroenergetika generatorlaridan elektr energiyasini targ'ib qilish bo'yicha juda oddiy siyosatni ishlab chiqdi unda "yashil tarif" bo'yicha QTE investisiyalari jalb eta boshlandi⁸⁷. Undan tashqari QTEni rivojlanishi uchun mamlakat turli grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari ajratilgan. 2000 yilda ushbu yashil tariflari qayta ko'rib chiqildi⁸⁸ va 1991 yildagi qonun o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, yashil tariflari endi chakana savdo stavkasi foiziga bog'liq emas edi⁸⁹. Qayta tiklanadigan energiya ulushi ortib borishi bilan EEGga qo'shimcha xarajatlari ham ortib bordi⁹⁰. Germaniyada QTE bo'yicha qonunlar har 4-5 yilda ko'rib chiqiladi. Germaniya qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish bo'yicha yetakchi bo'lib kelmoqda va u YeI tomonidan belgilangan minimal darajadan ancha yuqori bo'lgan o'lgan maqsadlarga ega. Shu bilan birgalikga asta sekinlik bilan "yashil tariflar"dan voz kechgan holda, QTE tannarxini pasaytirishda raqobat bo'lishini muhim usul deb hisoblanib, "Contracts-for Difference" farqlar shartnomalariga o'tish ya'ni shartnomalar kim oshdi savdolari orqali amalga oshiriladi.

⁸⁷ Energy Transition, Craig Morris, Martin Peht An initiative of the Heinrich Böll Foundation Released on 28 November 2012

⁸⁸ Erneuerbare Energien Gesetz (EEG) (Renewable Energy Act) –QTE qonuni

⁸⁹ Energy Transition, Craig Morris, Martin Peht An initiative of the Heinrich Böll Foundation Released on 28 November 2012

⁹⁰ European Renewable Energy Policy and Investment, David Nelson, Brian O'Connell, Luca De Lorenzo, Matthew Huxham, A CPI Report, November 2016



Rasm 1

Germaniya Energiya va QTE siyosati⁹¹

Manba: European Renewable Energy Policy and Investment, David Nelson, Brian O’Connell, Luca De Lorenzo, Matthew Huxham, A CPI Report, November 2016. 40-bet

Germaniyaning dastlabki yashil tariflari ko‘plab investorlarni jalb qildi. Jismoniy shaxslar va mahalliy investorlar sarmoya kiritishga rag‘batlantirildi, bu esa QTEni jamoatchilik tomonidan keng targ‘ib qabul qilinishiga yordam berdi, ammo bu eng tejamkor yondashuv bo‘lmaganligi uchun, 2014 yildan Germaniya 2017 yilgacha QTE loyihalari narxini belgilash uchun raqobatbardosh auktsionlarni joriy etishga qaror qildi. Keyinchalik, mamlakatda ushbu auktsionlar doirasida shakli, qamrovi va jarayoniga qarab QTE manbalarining har bir potentsial loyihasi o‘z takliflarini taqdim etib, eng past narx takliflari joylashtirish maqsadlarigacha qabul qilinadi.

Germaniyaning QTega manbalariga o‘tishga undovchi maqsadlardan biri bu – iqlim o‘zgarishiga o‘z hissasini qo‘shishdan iboratdir. Mamlakatda 2020 va 2050 yillarga kelib, 1990 yildagi holatdan mos ravishda 40% va 80% dan ortiq

⁹¹ Berilgan manba asosida muallif tomonidan shakllantirildi

qisqartiriladigan issiqxona gazlari ishlab chiqarishini qisqartirish bo'yicha o'ltan vazifalarini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Germaniyaning energiyaga o'tish maqsadi 2050 yilgacha xavfsiz, arzon va ekologik toza energiya bilan ta'minlashdir.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**Toshkent Jan Mone nomidagi Yevropa tadqiqotlari bo‘yicha ilg‘or tajriba
markazi**



**«O‘ZBEKISTONDAN YEVROPA ITTIFOQI BOZORIGA EKSPORT
QILISH: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR»
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
DASTURI**

Sana: 2023-yil 5-dekabr, soat 14.30

O‘tkazilish joyi: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU),
Konferensiyalar zali (SOK)

Toshkent – 2023

**«O‘zbekistondan Yevropa ittifoqi bozoriga eksport qilish: muammolar,
imkoniyatlar va istiqbollar» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
konferensiya dasturi**
2023-yil 5-dekabr

14.30 – 15.00	Ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish
KIRISH SO‘ZI	
15.00 – 15.05	NUGMANOV Nugman Abdullayevich – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori v.v.b., yu.f.d., prof.
15.05 – 15.10	ISMAILOVA Gulnoza Saydiganixodjayevna – “Toshkent Jan Mone nomidagi Yevropa tadqiqotlari bo‘yicha ilg‘or tajriba markazi” loyihasi rahbari, yu.f.d., prof.
MODERATOR:	
Sultanova Gavhar Karimovna — Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, i.f.n.	
TAQDIMOTLAR:	
15.10 – 15.20	RASHIDOV Komil Kayumovich — yu.f.d., professor, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Shartnoma-huquq boshqarmasi boshlig‘i. <i>O‘zbekiston Respublikasining transport majmuini xalqaro transport tizimiga uyg‘unlashtirishning huquqlari</i>
15.20 – 15.30	MAVLANOV Ibragim Radjabovich — i.f.d., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro moliya va investitsiyalar” kafedrasida professori. <i>Yevropa bozorlariga eksport qilish: imkoniyatlar va istiqbollar</i>

15.30 – 15.40	<p>KADIROV Abdurashid Madjitovich — i.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash" kafedrası professori.</p> <p><i>Современные тенденции развития внешнеэкономических связей Узбекистана</i></p>
15.40 – 15.50	<p>AXMADIYEVA Aliya Toxtarovna — i.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash" kafedrası professori.</p> <p><i>Требования рынка Европейского Союза к импортируемым товарам</i></p>
15.50 – 16.00	<p>DJURAYEVA Rano Abdullayevna — i.f.n., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrası dotsenti</p> <p><i>Опыт цифровизации таможенного дела в ЕС и возможности его имплементации в Узбекистане</i></p>
16.00 – 16.10	<p>GULYAMOVA Gulshaxnoz Sabirovna — i.f.n., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro moliya va investitsiyalar” kafedrası dotsenti</p> <p><i>Налоговая политика Европейского союза</i></p>
16.10 – 16.20	<p>ABDUKHAKIMOVA Malika Ilxomovna — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining yetakchi mutaxassisi.</p> <p><i>Rules and regulations of European Union countries in trade, in particular the import policy</i></p>
16.20 – 16.30	Muhokama
16.30	Anjumanning yopilishi